

ISSN:3060-4567 Modern education and development
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA
IQTISODIYOTNING TURLI SOHA VA TARMOQLARINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Urunbaeva Yulduz Pirnazarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti

iqtisodiyot fanlar falsafa doktori

t.f.n+998905052105

e-mail:urunbayeva_yulduz@mail.ru

Eshpo'latova Muhayyo Ulug'bek qizi

(Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 'iqtisodiyot' fakulteti talabasi)

t.f.n+998505776647

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib borayotganligi va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda innovatsiyalardan keng foydalanish orqali- tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga erishish mumkinligi haqida taklif va tavsiyalar berilgan. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalar uchun ijobiy qadamdir. Innovatsion texnologiyalarni samarali axborotlashtirish makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini sezilarli darajada oshiradi, bu esa boshqaruv qarorlari sifati va darajasini, axborot jarayonlari va xizmatlari samaradorligini oshirishga olib keladi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnik, madaniy va hayotning boshqa ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Barcha jarayonlarda axborotlashtirishni joriy etish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni rivojlantirish YAIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar dunyo iqtisodiyotini samaradorligini sezilarli darajada o'zgartiradi. Global tarmoq, raqamli qurilmalar iqtisodiy o'sishning drayveri hisoblanadi. Shu sababdan ularning tarmoqlardagi ro'li beqiyos ahamiyat kasb etadi. Raqamli*

texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bilan integrasiyasi bosqichlari va ahamiyati keltirib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** Global, texnologiya, bozor, axborot, narx, moliya, korxonalar, innovatsiya, kapital, innovatsion jarayon, raqamli texnologiyalar, bulutli texnologiya, IT (informatsion texnologiyalar) va raqamli transformatsiya*

Urunbaeva Yulduz Pirnazarovna

Samarkand Institute of Economics and Service

Associate Professor of the Department of Economic Theory

doctor of philosophy of economic sciences

Ph.D.n+998905052105

e-mail:urunbayeva_yulduz@mail.ru

Eshpolatova Muhayyo Ulugbek Qizi

(Samarkand Institute of Economics and Service, Faculty of Economics)

Ph.D. +998505776647 Prospects for the development of various sectors and sectors of the economy in the use of innovative technologies

Abstract. *This article analyzes the fact that innovation is becoming one of the most characteristic features of economic development and a factor that accelerates market development. Also, the wide use of innovation in the modern world suggests and recommendations are given that it is possible to achieve rapid development of entrepreneurship. The introduction of modern innovative technologies is a positive step for enterprises. Effective informatization of innovative technologies significantly increases macroeconomic indicators and socio-economic development processes of the enterprise, which leads to an increase in the quality and level of management decisions, the efficiency of information processes and services, which in turn improves socio-economic, scientific, technical, improves cultural and other indicators of life. The introduction of information in all processes and the development of modern digital technologies will have a positive effect on GDP growth. Digital technologies will significantly change the efficiency of the world economy. Global network, digital devices are drivers of economic growth. That's why their*

its role in networks is of incomparable importance. The stages and importance of integration of digital technologies with socio-economic spheres are mentioned.

Keywords: *global, technology, market, information, price, finance, enterprise, innovation, capital, innovation process, digital technology, cloud technology, IT (information technology) and digital transformation.*

*Перспективы развития различных отраслей и секторов экономики
использования цифровых и инновационных технологий*

Урунбаева Юлдуз Пирназаровна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Доцент кафедры экономической теории

доктор философии экономических наук

Доктор философии к.т.н. +998905052105

электронная почта: urunbayeva_yulduz@mail.ru

*электронная почта: М. У. Эшполатова (Самаркандский институт
экономики и сервиса, экономический факультет) к.т.н. +998505776647*

Аннотация: *В данной статье анализируется тот факт, что инновации становятся одной из наиболее характерных особенностей экономического развития и являются фактором, ускоряющим развитие рынка. Также даны предложения и рекомендации, что быстрого развития предпринимательства можно добиться за счет широкого использования инноваций в современном мире. Внедрение современных инновационных технологий является положительным шагом для предприятий. Эффективная информатизация инновационных технологий существенно повышает макроэкономические показатели и процессы социально-экономического развития предприятия, что приводит к повышению качества и уровня управленческих решений, эффективности информационных процессов и услуг, что в свою очередь улучшает социально-экономические, научные, техническое, улучшает культурные и другие показатели жизни. Внедрение информации во все процессы и*

развитие современных цифровых технологий окажут положительное влияние на рост ВВП. Цифровые технологии существенно изменяют эффективность мировой экономики. Глобальная сеть, цифровые устройства являются драйверами экономического роста. По этой причине их роль в сетях имеет несравненное значение. Отмечены этапы и важность интеграции цифровых технологий с социально-экономическими сферами.

Ключевые слова: *глобальный, технология, рынок, инновации, информация, цена, финансы, предприятие, инновации, капитал, инновационный процесс, цифровые технологии, облачные технологии, ИТ (информационные технологии) и цифровая трансформация.*

Kirish.

Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda bu nom ekzotik, noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan narsani eslatardi, ammo endi innovatsiyaning o'zi ham, uning tushunchalari ham dunyoni tezda zabt etmoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda. Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o'zgarishiga olib kelib, xalqaro integratsiyasini faollashtirishda xam aloxida o'rin egallamoqda. Chunonchi raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy hayotda keng tatbiq etish sur'atlarining turlichaligi oqibatida mamlakatlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Raqamlashib borayotgan global olamda raqamli iqtisodiyotning qiymati va samaradorligini baholash bo'yicha yagona integral indikatorni yaratish bo'yicha muammolarga duch kelinmoqda. Empirik va statistik ma'lumotlarning yetishmasligi, texnologik rivojlanish jarayonlarining hiddat bilan o'zgarib borayotganligi, institutsional o'zgarishlarning tez sur'atlarda amalga

o'shayotganligi sharoitida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Globalashuv va texnik taraqqiyot ularning o'zaro bog'liqligini oshirishni talab qiladi, shu bilan birga yangi tovar va xizmatlarning xalqaro bozorlariga chiqish imkonini beradigan innovatsion texnologiyalarni axborotlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishni jadallashtirish va uning investitsion jozibadorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydigan innovatsion texnologiyalarni axborotlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda" (Mirziyoyev, 2018), deya ta'kidlab o'tgan. Korxonaning o'zining iqtisodiy va texnik yashash qobiliyati kreditni ta'minlashi loyihaviy molilashtirishning to'rtinchi turi bo'ladi (Borut Likar, 2013). Hozirgi kunda investitsiyalarni innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga bir qancha imtiyozli shartlar qo'yilgan. Ayrim mualliflarning fikricha, an'anaviy iqtisodiyot ham, boshqa asosda rivojlanayotgan yangi iqtisodiyot ham mavjud. Bizning fikrimizcha, bu ikki modelni qaramaqarshi qo'ymasdan ikkalasining ijobiy tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki an'anaviy iqtisodiyot zamirida yangisi asta-sekin rivojlanib borishini namoyish etadi. Darhaqiqat, zamonaviy dunyoda innovatsiyalar ishlab

chiqarish omiliga aylangani haqiqatdir. Ma'lumki, an'anaviy ravishda ishlab chiqarishning uchta omili mavjud: yer, mehnat va kapital. Ularni birinchi bo'lib J. B. Sey tahlil qilgan edi. (Гужин, Гужина, 2012)

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas (Mirziyoyev, 2023). Oxirgi ikki yil ichida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan keng ko'lamli va kompleks ishlar olib borildi. Shu bilan birga, bugungi kunda vazirlik oldida Murojaatnomada aks etgan muhim vazifalar turibdi. Eng asosiy vazifa "Raqamli O'zbekiston–2030" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'lib, u o'z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Bunday yirik loyihani amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining to'liq hamda kompleks o'zgarishiga, raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Muhim vazifalardan yana biri davlatimiz rahbarining "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashdir. Qarorga asosan tasdiqlangan "Raqamli Toshkent" kompleks dasturida ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunal sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilgan holda poytaxtimizning qiyofasini to'liq ijobiy o'zgartirish ko'zda tutilgan.

Mamlakatning raqobatbardoshligi alohida korxonalarining raqobatbardoshligi asosidarivojlanadi. Har bir korxonalar raqobatbardoshlik bilan ta'minlangan afzalliklarga erishish uchun strategiyasini qo'llaydi. Biroq, muvaffaqiyatli kompaniyalarning evolyutsiyasi varivojlanishi tabiati o'xshash bo'ladi, chunki kompaniyalar innovatsiyalarga asoslangan raqobatdosh

ustunliklarni yaratadilar. Mamlakatimiz korxonalaridagi innovatsion jarayonlarkuchsizligining sababi quyidagi omillar ta'siridandir:

- sanoat sohasida ishlaydigan olimlar sonining kamligi, shuningdek, ishchi kuchidaolimlar va tadqiqotchilar ulushining pastligi;
- yuqori texnologiyalarni patentlash sohasiga kirmaslik;
- ishlab chiqarish sektori va universitetlar o'rtasidagi zaif hamkorlik;
- innovatsiyalarni rag'batlantirishning nisbatan muvaffaqiyatsizligi va tadbirkorlikniqo'llab-quvvatlash mexanizmlari faoliyati;
- biznesni boshlash uchun murakkab protseduralar; texnologik ta'lim sifatining yetarliemasligi.

Xizmat ko'rsatish sohasi haqida gapiradigan bo'lsak, axborot texnologiyalari ko'plab kundalik vazifalarni hal qiladi, buning natijasida esa yirik ko'lamdagi amallar tezroq, arzonroq, qulayroq va o'rtadagi vositachilarsiz bajariladi.

Xulosa va takliflar.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng so'nggi texnologiyalar ishlab chiqarish va tadbirkorlik jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohalari va tarmoqlariga kirib borishi bilan an'anaviy yondashuvlar o'zgaradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo'lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, yangi bir hodisa – raqamli iqtisodiyot paydo bo'ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'sirida odamlarning turmush tarzi o'zgarib boshladi, foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalar o'zgardir - turli geografik mintaqalar, faoliyat sohalari va boshqalardagi odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan axborot aloqalarining jadal o'sishi. Raqamli texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi.

Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. — 1st. ed. — El. knjiga. — Ljubljana INNOVATBorut Likar, (2013) co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole; translation ION management [Elektronskivir]

Mirziyoyev Sh. (2018) Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://uza.uz>.

Mirziyoyev Sh. (2023) Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2023-yil

Вертакова Ю.В. Симоненко Б.С. (2008) Управление инновациями: теория и практика.

М.: Высшее экономическое образование. Гужин А.А., Гужина Г.Н. (2012) Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. № 12-1. С. 6